

Akademik Anatoliy Sagdullayevning 70 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro anjuman o'tkazildi

2021-yil 19-iyun kuni tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Anatoliy Sagdullayevning 70 yillik yubileyiga bag'ishlangan "Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasi: an'analar, innovatsiyalar va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.





Unda O'zbekiston Fanlar akademiyasi vakillari, akademiklar, yetakchi arxeolog olimlar, O'zMU tarix fakulteti jamoasi, akademikning shogirdlari, yosh tadqiqotchilar, shuningdek, Ispaniya, Xitoy, Tojikiston, Gretsiya, Rossiya, Chexiyadan soha mutaxassislari ishtirok etdi. Anjumanda so'zga chiqqanlar A.Sagdullayevning arxeologiya sohasidagi uzoq yillik faoliyati, erishgan natijalari haqida gapirar ekan, olimning faoliyati ko'pqirrali ekanligini, 48 yil ish stajiga ega mohir pedagog, ijodkor va o'tkir qalam sohibligini alohida ta'kidlashdi.

Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich O'rta Osiyo arxeologiyasi, madaniyati va davlatchiligi tarixi bo'yicha yirik mutaxassis. Olim ilgari O'rta Osiyo arxeologiyasi faniga noma'lum bo'lgan yodgorliklarni kashf etgan va qadimgi Baqtriya, Sug'diyona hududlarida ko'p yillik dala arxeologik tadqiqotlari natijasida topgan muhim ilmiy materiallarni ilk bor tarix faniga kiritgan. Bu ilmiy kashfiyotlar va tadqiqotlar xorijda tan olingan. O'z ilmiy maktabini yaratgan olim. A.S.Sagdullayev 3 nafar doktorlik dissertatsiyasi, 14 nafar nomzodlik, 5 nafar tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va bir qator magistratura talabalarining dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilgan.